

Yoshlar ishlari agentligining
2026-yil "13"-martdagi 01-07/15-son,
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2026-yil "13"-martdagi 13-q/q-son,
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining
2026-yil "13"-martdagi 16-q/q-son,
Strategik rivojlanish va islohotlar agentligi 2026-
yil "13"-martdagi 02-07-241-son qo'shma
qaroriga 2-ilova

**Yoshlar orasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish va eng ko'p kitob o'qigan
yoshlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "Top-100 kitobxon"
tanlovini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida
NIZOM**

I. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Nizom mamlakatimizdagi umumta'lim maktablari, texnikum, akademik litsey va oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan o'quvchi va talabalar orasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish, iqtidorli va eng ko'p kitob o'qigan yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "Top-100 kitobxon" tanlovini (keyingi o'rinlarda – Tanlov) o'tkazish tartibini belgilaydi.

1.2. Tanlov O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 15-yanvarda qabul qilingan PQ-9-sonli "Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o'rtasida kitob o'qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etiladi. Tanlovning maqsad va vazifalari kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalarni izchil amalga oshirish, mamlakatimizdagi barcha ta'lim muassasalari, jumladan, oliy ta'lim, kasbiy ta'lim va umumta'lim maktablarida tahsil olayotgan o'quvchi va talabalar orasida ko'p kitob o'qiydigan yoshlarni aniqlash, ularning badiiy tafakkuri va iqtidorini rag'batlantirish, kitobxonlik va jamiyat hayotidagi boshqa loyihalardagi faolligini oshirish va qo'llab-quvvatlashdan iborat.

1.3. O'zbekiston Respublikasida istiqomat qilayotgan millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi va tilidan qat'iy nazar 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan barcha talaba va o'quvchilar Tanlovda ishtirok etish huquqiga ega. Bunda, tanlovda Respublika bosqichida top-100 kitobxon sifatida e'tirof etilgan ishtirokchilar keyingi yildagi tanlovni o'tkazib yuborgan holatda bir yildan keyin tashkil etiladigan Tanlovda ishtirok etishi mumkin.

1.4. Tanlovni tashkil etish bo'yicha mas'ullar Yoshlar ishlari agentligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Strategik rivojlanish va islohotlar agentligi (keyingi o'rinlarda — Tashkilotchilar) hisoblanadi.

1.5. Tanlovda ishtirokchilarning salohiyatini baholash va g'oliblarni aniqlash uchun Tashkilotchilar tomonidan tasdiqlangan tegishli vazirliklar, idoralar va tashkilotlar, ularning hududiy bo'linmalari vakillari, mutaxassislar hamda olimlar

a'zo bo'lgan kamida besh kishidan iborat tarkibda Tashkiliy qo'mita (keyingi o'rinlarda — Qo'mita) tuziladi.

1.6. Tashkiliy qo'mita Tanlov nizomiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish vakolatiga ega.

II. Tanlovni o'tkazish tartibi

2.1. Tanlovni tashkil etish va uni o'tkazish vazifasi Yoshlar ishlari agentligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tuziladigan Tashkiliy qo'mita zimmasiga yuklatiladi.

Tashkiliy qo'mita:

- tanlovni o'tkazish borasida qaror qabul qiladi;
- ekspertlar komissiyasi va hakamlar hay'ati tarkibini tasdiqlaydi;
- adabiyotlar ro'yxatini tasdiqlaydi;
- tanlovning asosiy bosqichlari va tartib-qoidalari haqida ishtirokchilarni xabardor qiladi;
- barcha ishtirokchilar uchun teng sharoitlarni yaratadi;
- tanlov o'tkazish borasida oshkoralikni ta'minlaydi;
- tanlov ishtirokchilari o'rtasida yuzaga keladigan nizolarni hal etadi;
- mazkur Nizomga asoslangan holda tanlovni o'tkazilishini tashkil etadi.

2.2. Tanlov ishtirokchilarining salohiyatini baholash va g'oliblarni aniqlash uchun Komissiya a'zolari orasidan uning raisi va kotibi saylanadi. Bunda, Komissiya a'zolari hududiy bosqichda Yoshlar ishlari agentligi va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hududiy bo'linmalari tomonidan tasdiqlanadi.

2.3. Tanlovda O'zbekiston Respublikasidagi barcha oliy ta'lim muassalari, akademik litsey, texnikum va maktablarda tahsil olayotgan 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan iqtidorli o'quvchi va talabalar qatnashish huquqiga ega.

2.4. Tanlovda ishtirok etish istagida bo'lgan iqtidorli o'quvchi va talabalar onlayn tarzda "Mutolaa" platformasida "Top-100 kitobxon" tanloviga ro'yxatdan o'tish orqali ishtirok etish huquqiga ega bo'ladilar.

2.5. Tanlov quyidagi ikkita yosh toifasi bo'yicha alohida-alohida tartibda o'tkaziladi:

14 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan yoshlar (2026-yilgi bosqichda 2007–2012-yillar oralig'ida tug'ilganlar);

20 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar (2026-yilgi bosqichda 1996–2006-yillar oralig'ida tug'ilganlar).

2.6. Yoshlar ishlari agentligi tanlov boshlanishidan bir oy muddatda o'z rasmiy ijtimoiy tarmoqlariga arizalarni shakllantirish, ro'yxatdan o'tkazish va topshirish tartibi, muddati va talablari ko'rsatilgan e'lonni o'z rasmiy tarmoqlari orqali yoritсин.

2.7. Tashkilotchilar Tanlov ishtirokchilarini tanlovning talab va shartlari to'g'risida xabardor qiladi, tanlov yakunlari bo'yicha g'oliblarga xabar beradi va ularni taqdirlashni tashkil etadi.

2.8. Komissiya kotibi Tanlov jarayonidagi har bir bosqich yuzasidan ma'lumotlarni umumlashtirib, Komissiya a'zolariga taqdim etadi.

2.9. Tanlov bir marta 2 bosqichda o'tkaziladi:

a) **Birinchi bosqich** tanlovning arizalar qabul qilish va saralash bosqichi bo'lib, unda tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan yoshlardan arizalar qabul qilinadi va ishtirokchilar "Mutolaa" platformasida o'tkaziladigan test sinovi, "Davra" va "Marra" tizimlaridagi ishtirok asosida saralanadi.

Birinchi bosqich boshlanadigan kunga qadar tanlovdan ro'yxatdan o'tish mumkin. Tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan yoshlar uchun Tanlov komissiyasi tomonidan ikki yosh toifasida alohida-alohida belgilangan kitoblar ro'yxati beriladi. Har oyda (aprel-oktyabr oylari) **1 ta majburiy, 4 ta ixtiyoriy** kitobni o'qish va yakuniy test ishlash orqali saralab olinadi.

Bunda har oy **1 ta** majburiy deb belgilangan kitobdan 30 ta test savollari beriladi. Har bir to'g'ri javob uchun **2 ball**, umumiy **60 ball** beriladi.

Ixtiyoriy etib belgilangan 4 dona kitobni o'qish orqali jami 15 ballgacha jamg'arish imkoniyati mavjud bo'ladi.

"Mutolaa" platformasidagi "**Marra**" tizimi orqali kitobxonlarning uzluksiz mutolaa qilishi nazorat qilinsa, "**Davra**" tizimi orqali o'qilgan kitoblar bo'yicha yozgan tahliliy fikrlari va sharhlari baholanadi. Bunda doimiylik uchun **15 ball**, sharhlar uchun **10 ballgacha** beriladi.

Tanlov 7 oy davom etadi. Har bir oyda ishtirokchilar umumiy 100 ballgacha jamg'arish imkoniyatiga ega bo'ladi. Umumiy natijalarda eng yuqori ball to'plagan 200 nafar yosh (ikki yosh toifasida 100 nafardan) tanlovning respublika respublika yakuniy bosqichga yo'llanma oladi.

b) **2-bosqich** tanlovning yakuniy bosqichi bo'lib, bunda ishtirokchilar Toshkent shahrida markazlashgan holda qatnashadi.

Yakuniy test bosqichida har bir yosh toifasida 100 nafar kitobxonlar g'oliblikni qo'lga kiritadi. G'oliblar 40 ta test savollari orqali aniqlanadi. Tanlovning yakuniy bosqichi uchun test savollari respublika tanlov komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi. Ishtirokchilarning ballari teng bo'lib qolgan taqdirda 40 ta testni ishlash uchun sarflangan vaqtga qaraladi. Kim kamroq vaqt sarflagan bo'lsa, o'sha ishtirokchi yuqoriroq o'rinda deb topiladi.

2.10. Tanlov natijalari bo'yicha g'oliblar va ularning salohiyati to'g'risidagi ma'lumotlar Komissiya bayonnomasida ko'rsatiladi va uning a'zolari tomonidan imzolanadi.

2.11. Natijalar Komissiya tomonidan bayonnoma bilan tasdiqlanib, Tashkilotchilarning mas'ul vakiliga taqdim etilganidan so'ng yakuniy (hal qiluvchi ahamiyatga ega) hisoblanadi va Komissiya qarori bo'yicha Tashkilotchilar izoh bermaydi.

III. Tanlov g'oliblarini taqdirlash

3.1. Tanlovning yakuniy respublika bosqichi g'oliblari (100 nafar: har ikki yosh toifasida 50 nafardan) Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 25 barobari miqdoridagi pul mukofoti va diplom bilan rag'batlantiriladi.

IV. Yakunlovchi qoidalar

4.1. Tanlovning ishchi tili o'zbek tili.

4.2. Tanlov to'g'risidagi ma'lumotlar va uning natijalari Tashkilotchilar va ularning tizimidagi tashkilotlar ijtimoiy tarmoqlar va boshqa ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

4.3. Tanlov ishtirokchisi (boshqa shaxs) tomonidan tanlovning yakuniy bosqichini tashkil etish va o'tkazish, shuningdek, uning natijasi bilan bog'liq murojaat (e'tiroz)lar qabul qilinmaydi.

4.4. Ushbu Nizom talablarini buzganlikda aybdor shaxslar qonunchilikka muvofiq javob beradilar.

Yoshlar ishlari agentligining
2026-yil "13"-martdagi 01-07/15-son,
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2026-yil "13"-martdagi 13-q/q-son,
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining
2026-yil "13"-martdagi 16-q/q-son,
Strategik rivojlanish va islohotlar agentligi
2026-yil "13"-martdagi 02-07-241-son qo'shma
qaroriga 3-ilova

**"Top-100 kitobxon" talabalar va o'quvchilar tanlovining
BAHOLASH MEZONI**

№	Baholash mezonlari	Ko'rsatkichning umumiy reytingdagi salmog'i	
I.	Majburiy deb belgilangan 1 dona kitob hamda ixtiyoriy deb belgilangan 4 dona kitobni mutolaa qilish	75 ballgacha	
1.1.	1 dona majburiy kitobni mutolaa qilish va test ishlash orqali (30 ta) 2 ball dan har bir to'g'ri javob uchun	60 ball	60
II.	4 ta ixtiyoriy deb belgilangan kitoblarni o'qish orqali	15 ballgacha	
2.1.	1 dona kitob uchun	4 ball	15
	2 ta kitob uchun	8 ball	
	3 ta kitob uchun	12 ball	
	4 ta kitob uchun	15 ball	
III.	Marra tizimi (uzluksiz o'qish)	15 ballgacha	
3.1.	5 kun uzluksiz o'qish	5 ball	15
3.2.	10 kun uzluksiz o'qish	8 ball	
3.3.	20 kun uzluksiz o'qish	12 ball	
3.4.	30+ kun uzluksiz o'qish	15 ball	
IV.	Davra tizimi (sharh va tahliliy fikrlar)	10 ballgacha	
4.1.	1–2 sharh	4 ball	10
4.2.	3–4 sharh	7 ball	
4.3.	5 tahliliy sharh	10 ball	
V.	JAMI:	100 ball	

Izoh: Yoshlar orasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish va eng ko'p kitob o'qigan yoshlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "Top-100 kitobxon" tanlovini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha respublika tashkiliy qo'mitasining xulosasi bilan qo'shimcha o'zgartirish kiritilishi mumkin.

Yoshlar ishlari agentligining
2026-yil "13"-martdagi 01-07/15-son,
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2026-yil "13"-martdagi 13-q/q-son,
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining
2026-yil "13"-martdagi 16-q/q-son,
Strategik rivojlanish va islohotlar agentligi
2026-yil "13"-martdagi 02-07-241-son qo'shma
qaroriga 4 - ilova

Kitoblar ro'yxati

14-19 yosh toifasi uchun majburiy o'qilishi belgilangan kitoblar		
T/r	Muallif	Asar nomi
1.	Chingiz Aytmatov	Sohil boylab chopayotgan alapar
2.	O'zbek xalq dostoni	Alpomish
3.	Antuan de Sent-Ekzyuperi	Kichkina shahzoda
4.	Sa'dulla Quronov	Galaktikada bir kun
5.	Napoleon Hill	O'yla va boy bo'l
6.	Hojiakbar Shayxonov	Olmos jilosi
7.	Deyl Karnegi	Do'stlar orttirish va odamlarga ta'sir o'tkazish xususida
8.	Tog'ay Murod	Oydinda yurgan odamlar
9.	Javlon Jovliyev	Qo'rqma
10.	Murodboy Nizanov	Dushman
14-19 yosh toifasi uchun ixtiyoriy o'qilishi belgilangan kitoblar		
1.	Abduqayum Yo'ldosh	Parim bo'lsa
2.	Abdurauf Fitrat	Hind sayyohining qissasi
3.	Xayriddin Sultonov	Ishonch telefoni
4.	Stiven R.Kovi	Muvaffaqiyatli insonlarning 7 ko'nikmasi
5.	Mirkarim Osim	Jayhun ustida bulutlar
6.	O'tkir Hoshimov	Nur borki, soya bor
7.	Jek London	Martin Iden
8.	Erkin Vohidov	Ruhlar isyoni
9.	Nosiriddin Rabg'uziy	Qissasi Rabg'uziy
10.	Shukrullo	Kafansiz ko'milganlar
11.	Aleksandr Pushkin	Yevgeniy Onegin

12.	Onore de Balzak	Gorio ota
13.	Charlz Dikkens	Oliver Tvistning boshidan kechirganlari
14.	Anton Chexov	Oltinchi palata
15.	Abdurauf Fitrat	Hind sayyohining qissasi
16.	Somerset Moem	Teatr
17.	Shuhrat	Oltin zanglamas
18.	Nabijon Boqiy	Qatlnoma
19.	Lev Tolstoy	Hojimurod
20.	Marsel Brion	Menkim, Sohibqiron Jahongir Temur
21.	Sadriddin Ayniy	Eski maktab
22.	Rashod Nuri Guntekin	Yashil kecha
23.	Valentin Rasputin	Fransuz tili saboqlari
24.	Jaloliddin Rumi	Hikmatlar
25.	Gi De Mopassan	Marjon shodasi
26.	Shukur Xolmirzayev	Olis yulduzlar ostida
27.	Jyul Vern	O'n besh yoshli kapitan
28.	Abdulla Qodiriy	Jinlar bazmi

20-30 yosh toifasi uchun majburiy o'qilishi belgilangan kitoblar

T/r	Muallif	Asar nomi
1.	Fyodor Dostoyevskiy	Kambag'allar
2.	Mualliflar jamoasi	Uyg'onish to'plami
3.	Said Ahmad	Jimjitlik
4.	Robert Grin	Mahorat
5.	Morgan Hauzel	Pul psixologiyasi
6.	Jordan Piterson	Hayot uchun 12 qoida
7.	Javlon Jovliyev	Qo'rqma
8.	Kleyton M. Kristenson, Efosa Ojomo, Karen Dillon	Farovonlik paradoksi
9.	Den Braun	Da Vinchi siri
10.	Tohir Malik	Mehmon tuyg'ular

20-30 yosh toifasi uchun ixtiyoriy o'qilishi belgilangan kitoblar

1.	Henri Ford	Mening hayotim
2.	Sofokl	Shoh Edip
3.	Lev Tolstoy	Anna Karenina
4.	Tohir Malik	Halol nima-yu... harom nima
5.	Alisher Navoiy	Lison ut-tayr
6.	Frans Kafka	Jarayon
7.	Remark	G'arbiy frontda o'zgarish yo'q
8.	Teodor Drayzer	Amerika fojiasi
9.	Oybek	Qutlug' qon
10.	Zahiriddin Muhammad Bobur	Boburnoma
11.	Abdulla Oripov	Jannatga yo'l
12.	Masaru Ibuka	Uchdan keyin kech
13.	Gyustav Flober	Bovari xonim
14.	Ivan Turgenev	Otalar va bolalar
15.	Emil Zolya	Hamal
16.	Alber Kamyu	Begona
17.	Anna Frank	Chordoq hikoyalari
18.	Asqad Muxtor	Chinor
19.	Ahmad Azam	Ro'yo yoxud G'ulistonga safar
20.	Xurshid Do'stmuhammad	Bozor
21.	Isajon Sulton ""	Boqiy darbadar
22.	Kaykovus	Qobusnoma
23.	Nodar Dumbadze	Abadiyat qonuni
24.	Jorj Oruell	1984
25.	Fyodor Dostoyevskiy	Telba
26.	Zarifa Saidnosirova	Oybegim mening
27.	Migel de Servantes	Don Kixot
28.	Mixail Bulgakov	Usta va Margarita

Izoh: Ushbu kitoblar ro'yxati tanlovning saralash va yakuniy bosqichlari uchun umumiy hisoblanib, har oylik o'qiladigan majburiy va ixtiyoriy kitoblar ro'yxati ijtimoiy tarmoqlar orqali oldindan ma'lum qilib boriladi.